

Sadullayev Sardorbek Fozil o'g'li
Bojxona Qo'mitasi Bojxona instituti magistranti
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich
Bojxona Qo'mitasi Bojxona instituti dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
Sirochev Mexroj Bobirovich
Bojxona Qo'mitasi Bojxona instituti o'qituvchisi

BOJXONA QIYMATI YO'NALISHIDA QO'SHIMCHA HISOBLANGAN BOJXONA TO'LOVLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNI OLIDINI OLISH CHORALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasiga import qilingan tovarlardan oxirgi yillarda undirilayotgan bojxona to'lovlari to'g'risida ma'lumotlar, undirilgan to'lovlar va ulardan berilgan imtiyozlarning boj va soliqlar kesimida tahlili, bojxona rasmiylashtiruvidan so'ng bojxona qiymati yo'nalishida bojxona to'lovlari qo'shimcha hisoblanishining kelib chiqish sabablari, ularning oldini olish choralari, mavjud muammolar tahlil qilingan.

Annotation: In this article, information about customs fees collected from goods imported to the Republic of Uzbekistan in recent years, analysis of collected fees and benefits from them in terms of duties and taxes, reasons for additional calculation of customs fees in the direction of customs value after customs clearance, measures to prevent them, existing problems analyzed.

Kalit so'zlar: import, bojxona to'lovlari, bojxona qiymati, byudjet, QQS, import boji, aksiz solig'i, mtiyozlar, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari.

Key words: import, customs fees, customs value, budget, VAT, import duty, excise tax, privileges, additional customs fees.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda bojxona siyosatini to'g'ri amalga oshirish tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini qo'llab-quvvatlash, qulay investitsiya muhitini yaratish, mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimiga samarali integratsiyalashuvini ta'minlash bilan birga, davlat byudjeti daromadlar qismini oshirishga hamda iqtisodiy havfsizlikni ta'minlashga imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda tizimda bojxona taomillari soddalashtirilib, amaldagi tartiblar yengillashtirilmoqda. Bojxona to'lov¹laridan turli imtiyozlar berilib, soha yo'nalishida qo'shimcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi 4-moddasiga muvofiq bojxona to'g'risidagi qonunchilikdagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining foydasiga talqin qilinadi.

Tadbirkorlik subyektlarining bojxona rasmiylashtiruvi uchun sarflaydigan vaqt va mablag'larini kamaytirish hamda tashqi savdo aylanmasi ortishi asnosida bojxona organlarining mavjud resurslaridan unumli foydalanish maqsadida, xalqaro standartlar talablari hamda rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida tovarlar bojxona postlarida asosan yashil va sariq yo'laklar orqali soddalashtirilgan bojxona nazoratidan o'tkazilmoqda. Bu o'z navbatida tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazoratini yanada samarali tashkil etishni taqozo etadi.

Su bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi PF-4725-son Farmoniga muvofiq tadbirkorlik subyektlari tomonidan e'tiroz qilinadigan qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari xo'jalik sudi qarori asosida undirilishi bilan bog'liq yangi tartibning joriy qilinganligi respublikaga import tovarlari olib kelish bilan shug'ullanuvchi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari huquqlari kafolatlarini ta'minlashdagi navbatdagi qadam bo'ldi. Avvalgi tartibga ko'ra, bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida to'lanmay qolgan bojxona to'lovlari bojxona organi tomonidan tadbirkorlik sub'ektining bank hisob raqamiga inkasso topshiriqnomasi orqali so'zsiz tartibda undiriladi.

¹ Bojxona kodeksining 289-moddasi. Bojxona to'lovlari turlari.

edi. Yangi joriy qilingan tartibga asosan esa, qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarini undirish endi so‘zsiz tartibda emas, balki bojxona rasmiylashtiruv vaqtida undirilmay qolingan bojxona to‘lovlarini undiruvga qaratish yuzasidan xo‘jalik sudiga da‘vo arizasi kiritish orqali amalga oshiriladi.

Demak, rasmiylashtiruv vaqtida bojxona xodimi bojxona to‘lovlarini to‘liq undirib olinishini ta‘minlashi, tovarlar erkin muomalaga chiqarilgandan keyin o‘tkaziladigan tekshiruvlarda bojxona to‘lovlarini qo‘shimcha hisoblashga hech qanday asos qoldirmasligi lozim bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qo‘llanmada qo‘shimcha bojxona to‘lovlarini hisoblashga sabab bo‘luvchi amaliyotda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va ularning yechimi bo‘yicha vaziyatli misollar aks ettirildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘ngi yillarda “Bojxona qiymati” yo‘nalishi bo‘yicha qo‘shimcha undirilgan bojxona to‘lovlarining jami undirilgan to‘lovlar tarkibidagi ulushi 2018-yilda 6,5 %dan 2021-yilda 25,3 %ga yoki salkam 4 barobar ortgan. Buning asosiy sabablardan biri sifatida DBQning Daromadlar va bojxona statistikasi bosh boshqarmasi tarkibida Bojxona qiymati boshqarmasi tashkil etilib, ushbu boshqarma malakali xodimlar bilan jamlangan holda samarali ish olib borilayotganligi, shuningdek DBQning mas‘ul boshqarmalari tomonidan xalqaro so‘rovnomalar, hamkor davlatlar bilan o‘zaro ma‘lumotlar almashish hamda horijiy davlatlarga tegishli internet manbalardagi ma‘lumotlarni tahlil qilish bo‘yicha ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi natijasi deyish mumkin. Bu yo‘nalishda aniqlanayotgan xatoliklarning kelib chiqish sabablari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Bojxona qiymati yo‘nalishdagi sabablarning boshqa yo‘nalishlardan farqi shundaki, mazkur yo‘nalishga kiritilgan xatoliklar bojxona xodimining e‘tiborsizligi, taqdim etilgan birlamchi xujjatlarni chuqur yoki umuman o‘rganmasligi, hattoki rasmiylashtirilayotgan tovarning bojxona qiymatini o‘zi xizmat olib borayotgan postda avvalgi rasmiylashtirilgan aynan bir xil tovarning bojxona qiymatiga ham solishtirib ko‘rmasligi natijasida, umumiy qilib aytganda, xodimning mas‘uliyatsizligi oqibatida yuzaga kelishi bilan ajralib turadi. jami imtiyozlar miqdori oxirgi 3 yilda. Ushbu yo‘nalishda 2024-yilda ishchi guruxlar tomonidan jami 1568 ta BYDlar bo‘yicha 510,0 mlrd² so‘mlik qo‘shimcha bojxona to‘lovlari hisoblangan (69,8 mlrd so‘mi undirilgan). Bojxona qiymati yo‘nalishdagi holatlarning kelib chiqish sabablari asosan quyidagilardan iborat bo‘lmoqda:

1. Transport harajatlarini to‘liq hisobga olmaslik;
2. Sug‘urta harajatlarini hisobga olmaslik (yetkazib berish shartiga ko‘ra);
3. Eksport mamlakatida to‘langan bojxona to‘lovlarini hisobga olmaslik;
4. Bojxona qiymatini aniqlashning 1-usuli shartlariga rioya qilmaslik;
5. Asos sifatida olingan avvalgi BYDning mos kelmasligi;
6. Yetkazib berish shartining noto‘g‘ri ko‘rsatilishi;
7. Bojxona qiymati eksport mamlakatining tashqi savdo ma‘lumotlariga mos kelmasligi;
8. So‘rovnoma asosida eksport mamlakatidan olingan ma‘lumotdagi tafovut;
9. Bojxona qiymatini aniqlashning 4-usul bo‘yicha hisob-kitoblar noto‘g‘riligi;
10. Yuk kuzatuv xujjatlarida eksport va tranzit davlatlari ma‘sul organlarining muhri mavjud bo‘lmaganda 1-usulni qo‘llashlik;
11. Tovarning qiymati o‘zi ishlab chiqarilgan xom ashyo qiymatidan arzon belgilanganlik;
12. Ayni bir xil tovarga turli jo‘natuvchilar tomonidan belgilangan qiymat, vazn va boshqa xususiyatlari (BQ indeksi)ning keskin farq qilishi;

² Bojxona Qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

13. Bojxona qiymati usullarini qo‘llash ketma-ketligiga rioya qilmaslik (3 o‘rniga 6.3);
14. Bir jo‘natuvchi tomonidan turli importyorlarga yuborilgan tovarlar qiymatidagi farqlar;
15. 3-davlat orqali yuborilgan tovarning qiymati ayni bir xil tovarning to‘g‘ridan to‘g‘ri yuborilgan qiymatidan past bo‘lishi;
16. Bojxona qiymatini aniqlashning 6.3-usulida ishonchsiz internet manbaga xavola qilinganligi (olx.uz, avtoelon.uz, internet auksionda boshlang‘ich-rekala narxi, o‘tgan mavsumdagi chegirma narxi)
17. Avvalgi partiyalaridagi aynan bir xil modeldagi tovar (kreslo)ning bir donasining og‘irligi keskin farq
18. Tovarlarining nomlari umumiy tarzda bayon etilganligi
19. Shartnoma valyutasi kursi noto‘g‘ri ko‘rsatilishi;
20. AQSH dollari kursi noto‘g‘ri ko‘rsatilishi;
21. Kros kurs orqali hisob-kitobdagi hatolik;
22. Import rasmiylashtiruvda qayta taqdim etilgan hujjat (yangi invoices)da valyuta o‘zgartirishi natijasida noto‘g‘ri hisob-kitob³;

Yuqoridagi sabalarga bojxona amaliyotidan quyidagi misollarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

1) Xitoydan tadbirkorlik subyekti nomiga TIF TN kodi 9506620000 bo‘lgan “Inventar dlya zanyatiy obshch sportom i gimnastiki , Detskiye naduvnyye myachi rezinovyie dlya sportivnykh igrы, raznosvetye : ves: 28600 kg, kol. 102400 sht” tovarlar olib kelinib, BYUD bilan “Erkin muomalaga chiqarish” bojxona rejimiga bojxona qiymati 1-usulda 1 kg uchun 2,11 AQSH dollaridan yoki 1 donasi uchun 0,59 AQSH dollaridan rasmiylashtirilgan.

O‘rganish jarayonida mazkur tovar uchun “Tovar № 1. Bojxona qiymati olib kirilgan tovarlar narxidan juda past! Avtomatik shakllangan indikativ narx! Eng yukori xavf! Bojxona qiymati nazoratdan utkazilsin!” mazmunidagi xavf aniqlanganligi va ushbu xavfga hech qanday munosabat bildirilmaganligi ma’lum bo‘ldi.

BYUDga ilova qilingan hujjatlar o‘rganilganda quyidagi nomuvofiqliklar aniqlandi:

- eksport deklaratsiyani to‘ldirgan shaxs to‘g‘risida ma’lumotlar deklaratsiyaning pastki qismida mavjud emasligi (tartib bo‘yicha bo‘lishi majburiy);

- eksport deklaratsiyadagi Q kodi google qidiruv oynasi orqali izlanganda ushbu kod “Zhejiang Yatie Supply Chain Management Co., Ltd.” ekanligi va invoysdagi “Zhejiang Asia Railway Supply Chain Management Co., Ltd.”ga mos kelmasligi ma’lum bo‘ldi. Manzil: https://www.zhipin.com/gongsi/b0d081d54787721a1nN429u_EII~.html

- yo‘l varaqasi (SMR) Qirg‘izistonning Osh shahrida to‘ldirilganligi ko‘rsatilgan bo‘lib, transport zanjirini to‘liq aks ettiruvchi hujjatlar taqdim qilinmagan;

- transport xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmasada, transport xarajatlari bitim qiymatiga kiritilgan.

BYUDDagi nomuvofiqliklar:

- 1 dona “Detskiye naduvnyye myachi rezinovyie” tovarining vazni 280 grammni tashkil etmoqda, lekin ularning o‘lchamlari keltirilmagan;

- tovar ishlab chiqaruvchisi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilmagan.

³ Bojxona Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur BYUDdagi tovarlar uchun 1- usulni qo'llash mumkin emas deb topish mumkin.

Shu munosabat bilan BYUD bazasidagi aynan shu kabi (vazni 270-290 gramm) tovarlarning bojxona qiymati o'rganilganda, BYUDda 1 donasi 0,61 AQSH dollaridan rasmiylashtirilganligi ma'lum bo'ldi. Agar shu asosga havola qilinib, 1-usul 3-usulga o'zgartirilsa, qo'shimcha 4,5 mln so'm bojxona to'lovlari undirilishi mumkin.

2) Xitoydan tadbirkorlik subyektini nomiga TIF TN kodi 8703800009 bo'lgan "BYD SONG L" avtotransporti olib kelinib, BYUD bilan "Erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga bojxona qiymati 1-usulda 29 530 AQSH dollaridan rasmiylashtirilgan. BYUD va unga ilova qilingan hujjatlarda quyidagi nomuvofiqliklar aniqlandi: - eksport deklaratsiyasidagi yuk jo'natuvchi (Zhejiang Yatie Supply Chain Management Co., Ltd.) va invoysdagi yuk jo'natuvchi (Henan DongDong Automobile Service Co.,LTD) bir biriga mos emasligi; - transport hujjati Qozog'istonda rasmiylashtirilgan bo'lib, transport zanjiri bog'lanmayotganligi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur BYUDdagi tovarlar uchun 1-usul noto'g'ri qo'llanilgan deb topish mumkin. Ushbu holatda bojxona qiymati qayta ko'rib chiqilishi lozim.

3. Shartnoma valyutasi kursi noto'g'ri ko'rsatilishi;

AQSH dollari kursi noto'g'ri ko'rsatilishi;

"Erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan BYUDlar bo'yicha qo'shimcha hisoblangan 148,75 mln. so'm bojxona to'lovlari bugungi kunga qadar undirilmasdan qolmoqda.

Mazkur BYUDlarni o'rganish davomida tovarlar Rossiya rublida olib kelingan bo'lib IM-74 "Bojxona ombori" bojxona rejimiga rasmiylashtirishda tovarning faktura va bojxona qiymatlari noto'g'ri ko'rsatilgan holda rasmiylashtirilgan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2773-raqam bilan ro'yxatga olingan "BYUDni to'ldirish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnoma bilan tasdiqlangan Nizomning 11-Bob "Tovarlarni bojxona ombori rejimiga joylashtirishda BYUDni to'ldirish"da tovarning faktura qiymati (tovarning tashqi savdo kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) valyutasidagi qiymati ko'rsatilishi. Tashqi savdo kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) bo'lmagan holatlarda tovarning tovarning kuzatuv hujjatlarida ko'rsatilgan valyutada ko'rsatilishi)ni ko'rsatish tartibi belgilangan.

Shuningdek, Bojxona kodeksining 326-modda "Bojxona to'lovlari hisoblab chiqarish uchun chet el valyutasini qayta hisob-kitob qilish"da "...bojxona organi tomonidan harakatlar yoki tartib-taomillar bajarilgan kuni O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan valyutalarning rasmiy ayirboshlash kursi bo'yicha amalga oshirilishi" belgilangan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, "Bojxona ombori" rejimiga rasmiylashtirilgan BYUDlardagi tovarlar "Erkin muomalaga chiqarish" rejimiga rasmiylashtirishda kurs bo'yicha noto'g'ri hisob-kitoblarni amalga oshirilishi natijasida bojxona qiymati pasaytirilishiga va kamomad yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Kros kurs orqali hisob-kitobdagi hatolik;

+Import rasmiylashtiruvda qayta taqdim etilgan hujjatlar (yangi invois)da valyuta o'zgartirishi natijasida noto'g'ri hisob-kitob;

- O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" 2022-yil 6-apreldagi 160-son Qarorida tovarning bojxona qiymatini 1-usulda qo'llashda:

"Bojxona qiymati uchun asoslarni to'g'ri aniqlanganligini tekshirishda mansabdor shaxs valyuta kursini qo'llashning va chet el valyutasidagi summaning O'zbekiston Respublikasi valyutasiga qayta hisob-kitob qilish to'g'ri amalga oshirilganligini o'rganadi. Agar xarajatlar bir xil valyutada ko'rsatilgan bo'lsa, ularning yig'indisi bojxona qiymatini ma'lum qilish kunidagi milliy valyutaning Markaziy bank tomonidan belgilangan kursi bo'yicha hisob-kitob qilinadi. **Xarajatlar turli xil valyutalarda bo'lsa, ularning har biri bojxona qiymatini ma'lum qilish kunidagi milliy valyutadagi kursi bo'yicha hisoblanib ularning yig'indisi bojxona qiymati asosi sifatida olinadi.** Aynan ushbu talab narxga kiritiladigan va undan chiqarib tashlanadigan xarajatlar uchun ham tatbiq etiladi." deb belgilangan.

O'rganish davomida, rasmiylashtiruvga olib kelingan import tovarlarni rasmiylashtirish jarayonida turli valyutadagi tovar narxlar va xarajatlarini BYUD rasmiylashtirish kunidagi kurs bo'yicha qayta hisoblamaslik natijasida bojxona qiymatini past belgilanishiga sabab bo'lgan.

Shuningdek, qarorda -agar, sotuvchining xatosi tufayli invoysda xatolikka yo'l qo'yilgan bo'lib, o'rniga tovar narxi past ko'rsatilgan invoys taqdim qilinsa, mansabdor shaxs tovar narxi bojxona chegarasidan kesib o'tganda taqdim etilgan invoys narxidan past bo'lmasligini tekshirishi agar, yuk jo'natuvchi mamlakat bojxona organi bunday o'zgarishni rasmiy tarzda Tashqi ishlar vazirligi orqali tasdiqlab bersa, ya'ni o'zgartirish kiritish sabablari to'g'risidagi ma'lumotni va eksport bojxona deklaratsiyasining qayta rasmiylashtirilgan tahririni taqdim qilsa, bunday hollarda pasaytirilgan narx qabul qilinishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Shuningdek, qarorda - agar, sotuvchining xatosi tufayli invoysda xatolikka yo'l qo'yilgan bo'lib, o'rniga tovar narxi past ko'rsatilgan invoys taqdim qilinsa, mansabdor shaxs tovar narxi bojxona chegarasidan kesib o'tganda taqdim etilgan invoys narxidan past bo'lmasligini tekshirishi takidlangan (Masalan, tovar kuzatuv hujjatlari bojxona chegarasidan o'tayotganda 46 000 AQSH dollariga teng invoys taqdim etilib, yuk jo'natuvchi tomonidan keyinchalik ushbu invoys yangilangan holda 26 000 AQSH dollariga o'zgartirilsa, bojxona qiymati dastlabki taqdim etilgan 46 000 AQSH dollari miqdoridagi bojxona qiymatidan past bo'lishi mumkin emas).

Agar, yuk jo'natuvchi mamlakat bojxona organi bunday o'zgarishni rasmiy tarzda Tashqi ishlar vazirligi orqali tasdiqlab bersa, ya'ni o'zgartirish kiritish sabablari to'g'risidagi ma'lumotni va eksport bojxona deklaratsiyasining qayta rasmiylashtirilgan tahririni taqdim qilsa, bunday hollarda pasaytirilgan narx qabul qilinishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Buyruqning ushbu talblari talablariga rioya qilinmasligi, BYUD rasmiylashtirishda yangi invoys taqdim etish orqali tovar narxini pasaytirish ayrim xududiy boshqarmalarda odatiy holga aylangan deyish mumkin. Bu kabi bojxona qiymati past belgilanib rasmiylashtirish xolatlari respublika bo'yicha jami 168 ta BYUDlarda 9,7 mlrd so'm miqdoridagi tovarlarga nisbatan yo'l qo'yilib, **jami 3,6 mlrd so'm⁴** pul mablag'larini undirilmay qolishiga olib kelgan.

Xulosa va takliflar:

1. Rasmiylashtiruvdan keying bojxona tulovlarining kelib chiqishini oldini olish maqsadida BYDlarning rasmiylashtiruv jarayonida Masofaviy electron deklaratsiyalash bojxona postlarida tovarlarning bojxona qiymatini tog'riligini tekshiruvchi alohida guruh tashkil etilib bu guruh faqat tovarning bojxona qiymatini tekshiruvchi guruh bo'lib, bu guruh vakillari tekshirildi belgisini qo'ygandan so'ng BYD larning rasmiylashtiruvini amalga oshirish. Bu jarayon tovarlarning bojxona qiymatini noto'g'ri aniqlanishini oldini oladi.

2. Bojxona auditi jarayonida aniqlangan bojxona tulovlarini aniqlagan hodimlarni har bir aniqlagan holatlari uchun doimiy tartibda mukofat pullari berilishini ta'minlash. Bu mukofat pullarini aniqlagan bojxona tulovlari miqdorining foizlarida berish. Shuningdek Rasmiylashtiruvdan keyingi bojxona tulovlarini kelib chiqishini oldini olish maqsadida Rasmiylashtiruvgacha aniqlangan qo'shimcha bojxona tulovlarini aniqlagan hodimni ham doimiy tartibda mukofatlab boorish.

3. Maqsadli foydalanish sharti bilan imtiyoz berilgan xususiy korxonalariga bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida to'liq imtiyoz berish o'rniga, hisobot yili yakuniga qadar muddatga bojxona to'lovlarini kechiktirish imkoniyatini berish maqsadga muvofiq. Shundagina bunday korxonalar DSQda alohida nazoratga olinib, hisobot ijobiy deb topilganida muddati uzaytirilgan imtiyozlar hisobiga o'tkaziladi.

4. Tadbirkorlik subyektlari ustidan Bojxona auditini o'tkazish jarayonida qo'shimcha bojxona tulovlari aniqlangan taqdirda ushbu tadbirkorlik subyektlariga jazo choralarini qo'llash jumladan

⁴ Bojxona Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

qo‘shimcha hisoblangan bojxona tulovlarining 20% igacha bo‘lgan miqdorda jarima belgilash, shuningdek ushbu tadbirkorlik subyektlarining deklaratsiyalarini muayyan davrga qizil yo‘lakka yo‘naltirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvardagi O‘RQ-400-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda O‘RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-maydagi “Imtiyozlar va preferensiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3756-son Qarori.
4. T.N.Pardayev, A.A.Shadmankulov “Bojxona tariflari va to‘lovlari”, Darslik//Toshkent: “Tafakkur qanoti” 2017-yil
5. S.Gulyamov, Z.Makkamov, T.Pardayev, “Qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarining kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish choralari”, uslubiy qo‘llanma. T.: OHBI, 2016-y